

TARJIMA JARAYONIDAGI MADANIY TAFOVUTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Qo‘chqarova Shaxzoda

O‘zDJTU talabasi.

Ilmiy rahbar: Ernazarova N.X.

Annotatsiya. *Ushbu maqola tarjima jarayonida madaniy tafovutlarni aniqlash, ularni samarali hal qilish usullari va tarjimonlar duch keladigan asosiy muammolarni o‘rganadi. Maqolada madaniy tafovutlarni bartaraf etish uchun madaniy moslashtirish va ekvivalentlik tamoyillariga alohida e‘tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: tarjima, ekvivalentlik, aslyat matni, tarjima matni, madaniy nomuvofiqliklar.

XXI asr insoniyat rivojlanishining yangi bosqichining boshlanishi bilan belgilanadi. Bu esa inson turmush tarzining rivojlanishidagi eng muhim yo‘nalishlarni belgilab beruvchi, globallashuv jarayonidir. Hozirda dunyo bo‘ylab iqtisodiy, siyosiy aloqalarni kengaytirish, turizmning rivojlanishi, turli davlatlarda ta‘lim olish imkoniyatlari va boshqa ko‘plan hodisalar ro‘y bermoqda. Madaniyatlararo aloqa turli madaniyatlar o‘rtasida amalga oshiriladigan aloqa hisoblanadi. Bilamizki, til-ijtimoiy hodisa bo‘lib, usiz ijtimoiy faoliyat olib borib bo‘maydi. Shuning uchun tarjimon turli madaniyatlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi, desak adashmagan bo‘lamiz. Tarjima jarayoni o‘z ichiga madaniy tafovutlar bilan bog‘liq qiyinchiliklarni oladi, bu esa tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir. Madaniy tafovutlar, asosan, tillararo turli axloqiy me‘yorlar, odob-axloq qoidalari, an‘analar va dunyoqarashlardagi farqlardan kelib chiqadi. Tarjimonlar har bir madaniyatning o‘ziga xosligiga hurmat ko‘rsatgan holda asl matn mazmunini saqlab qolishga intilishlari zarur. Aks holda madaniyatlar o‘rtasida turli xil tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Har bir aloqa yoki asl xabarning amaliy qiymati mavjud. Tarjimon xabarning dalillar bayonoti, taklif, buyruq yoki hazil ekanligini bilishi lozim. Misol uchun “Men bilmayman” (“I don’t know”) faqatgina bayonot kabi tarjima qilinmaydi, balki ikkilanish (“Ko‘ramiz”) degan ma‘nosini ham berishi mumkin. “What gives” – Amerika shevasida “Ishlar qalay” degan savol mazmunini beradi. Bu tarjima xabarni lingvistik va madaniy to‘siqlar orqali o‘tkazish jarayonidir.[I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov., 28-29]

Tarjima qilishda eng katta muammo madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni ajratishdir. Muayyan madaniyatga mansub aholi biror narsaga o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib qaraydi. Bir-biriga ekvivalentdek ko‘rinadigan so‘zlar aslida ekvivalent bo‘lmashliklari mumkin. Masalan, “cho‘chqa” so‘zi o‘zbek tilida ma‘lum darajada salbiy bo‘yoqqa ega. Ammo “pig” Amerikada bu so‘z neytral ma‘noda qo‘llaniladi. [I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov.,32]

J.Abduqaniyevaning fikricha, ekvivalentlik- tarjima jarayonida asl matnning mazmuni, uslubi va kontekstini saqlab qolish uchun muhimdir. Tarjimon asl matnni maksimal darajada aniq va to‘g‘ri yetkazishi kerak. Ekvivalentlik tarjimada bir nechta

vazifani bajaradi, jumladan, u tarjimaning asosiy hodisasi hisoblanib, tarjimoni o‘rganishda katta samara beradi.

Tarjimada kontekst va ma’no. Tarjimada muhim ahamiyat kasb etadigan omillardan biri – bu kontekstni tushunishdir. Tarjimon, nafaqat so‘zlarning tarjimasiga, balki butun matnning umumiy mazmuniga e’tibor berishi kerak. Lingvistik va madaniy tafovutlarni inobatga olgan holda, tarjimonlar matnni to‘g‘ri talqin qilishi lozim. Mona Bakerning fikricha, bog‘liqlik – kitob matnidagi bir butunlikni yarata-digan referensiya va bog‘lovchi kabi bog‘lovchi qurilmalarni muhokama qiladi. Ularning tillararo farqlari sezilarli darajada bo‘lishi mumkinligini qayd etadi. Madaniy kontekst bu elementlarni to‘g‘ri tushunish va tarjima qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Madaniyatlararo bilimlarni kengaytirish. Tarjimonlar uchun madaniyatlara-ro bilimlarni oshirish juda muhim. Ular turli xalqlarning urf-odatlarini, madaniyati va tarixiy kontekstlari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak. Bu nafaqat tarjima-da yuqori sifatga erishishga, balki madaniy tushunmovchiliklarning oldini olishga ham yordam beradi.

Madaniy Moslashtirish: Tarjimonlar asarlarni maqsadli madaniyatga moslashtirish orqali madaniy farqlarni yengib o‘tishlari mumkin. Bu jarayonda tarjima qilinayotgan matnning asosiy mazmuni saqlanib qoladi.

Pragmatik Ekvivalentlik – Pragmatika bo‘yicha, Baker konnotativ ma’nolar, ayniqsa xushmuomalalik normalari va ijtimoiy kutishlar qanchalik farqlanishini tahlil qiladi. Tarjimonlar bu nozik tomonlarni tushunib, so‘zma-so‘z tarjima qilishda noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi natijalarga olib kelmasligi uchun ularga e’tibor berishlari kerak. Ekvivalentlik: ekvivalentlik tamoyilini muhokama qiladi, bunda tarjimonlar madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olib, ma’noni saqlab qolishlari zarur.

[Mona Baker,105]

Muqobili yo‘q so‘zlarni tarjima qilish

Bunday so‘zlarni tarjima qilishning bir nechta usuli mavjud. Muqobili yo‘q so‘zlarni tarjima qilishning eng oson yo‘li bu – so‘zlarni transliteratsiya qilish, ya’ni so‘z talaffuzini berish, saqlash hisoblanadi. Bu usuldan kishi ismlarini, joy nomlarini, grafik nomlarni, lavozimlarni, gazeta va jurnallar, ya’ni davriy nashr nomlarini, korxonalar, tashkilot, firma, kompaniya nomlarini, kema hamda mahmonxonalar comparing transliteratsiya qilsihda keng qo‘llaniladi.[I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov,119]

Tarjima jarayonida tilning o‘ziga xosliklari, madaniy tafovutlar va semantik noaniqliklar kabi qiyinchiliklar mavjud. Ammo tarjimon tarjima qilayotgan matnida nafaqat so‘zning, balki butun bir asar, kiyoya yoki matnning ma’nosini tushunib, ekvivalentlik tushunchasini ham to‘g‘ri tahlil qilgan holda tarjima qilsa, tarjima sifati oshadi va madaniyatlar orasida o‘zaro tushunmovchiliklar yuzaga kelishi kamayishi mumkin. Hozirda, zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt ushbu muammolarni bartaraf etishda yordam berishi mumkin, ya’ni bu tarjima sifatini oshirish va jarayonni soddalashtirishini mumkin. Shuningdek, inson omilining ahamiyati ham muhimdir, chunki yaxshi malakali tarjimonlar har doim kerak bo‘ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tarjima nazariyasi, I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, Toshkent 2012
2. Baker M. In Other Words. A course book on Translation
3. Abduganiyeva.J.R. "Consecutive Interpretation Quality Assessment Within Training Process"